

INSON RUHIYATIGA MOTIVATSION TA'SIRNING BADIY ASAR ORQALI KIRIB BORISHI

Bozorboyeva Ozodaxon Umidjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universitetining 2-bosqich talabasi
Whiteroselimitless@gmail.com
+998 99 641 81 48

Annotatsiya.

Zamonaviy adabiy tanqidda "motiv" atamasi turli uslubiy sharoitlarda va turli maqsadlarda qo'llaniladi, bu asosan kontseptsiya talqinidagi farqlarni va uning eng muhim xususiyatlarini tushuntiradi. Motivning umumiyligini qabul qilingan ko'rsatkichi uning takrorlanuvchanligidir. «... Asarda motiv sifatida, - deydi B.Gasparov, - har qanday hodisa, har qanday semantik «nuqta» - hodisa, xarakterning o'ziga xos xususiyati, manzara elementi, har qanday predmet, og'zaki so'z, bo'yoq, tovush va boshqalar; motivni belgilaydigan yagona narsa bu uning matnda takrorlanishi, shuning uchun an'anaviy hikoyachilikdan farqli o'laroq, u diskret komponentlar ("belgilar" yoki "voqealar") deb hisoblanishi mumkin bo'lgan oldindan yoki kamroq aniqlanganligi sababli, berilgan "alifbo" mavjud emas "- bu to'g'ridan-to'g'ri strukturani joylashtirishda va struktura orqali shakllanadi"

Kalit so'zlar.

Motivatsiya, badiiy adabiyot, ruhiyat, tafakkur, nomalar, din

Dunyodagi mavjudotlar orasida odamzotning alohida o'rni borligi bejiz emas. Chunki buyuk Yaratgan tomonidan inson ruh va hissiyot bilan ne'matlangan. Shu sababli biz qolgan tirik jordan farq qilamiz. Xursandchilik, xafagarchilik, pessemistik yoki optimistik kayfiyatlar inson ruhiyatiga xos bo'lgan hodisalar sanaladi. Ammo ularga ta'sir qiluvchi tashqi omillar sabab bu ruhiyat ijobjiy yoki salbiy tomonga o'zgarib turadi. Albatta, bu sabablar qatorida badiiyat alohida o'rinni egallaydi. So'z kuchi shu qadar buyukki, u hatto "jar yoqasida turgan" odamni "hayotga" qaytara oladi. Buni o'z tajribamdan kelib chiqqan holda ham bemalol aytal olaman!

Tom ma'noda bunday kuchga ega asarlar chiqish adabiyotida ham, botish vakillari ijodida ham talaygina. Ammo ularning orasida alohida uslubi va juda ham jo'n voqealar asosiga chuqur ma'no singdirilganligi bilan ajralib turuvchi asarlardan biri bu Og Mandinioning "Dunyoning eng buyuk savdogari" asari, mening fikrimcha. Avvalo, bu asardagi uslub o'ziga jalb qiladi kishini. Asarning kirish qismi eng buyuk savdogar va uning ezgulikka yo'g'rilgan hayoti haqida boradi. So'ngra uning o'tmishi va u oddiy tuyaboqardan qanday qilib buyuk savdogarga aylangani haqidagi voqealar bayon qilinadi. Insonning kelajagini, odatda, uning hayotidagi eng og'ir vaziyatda qabul qilgan qarori belgilab beradi. Og Mandinioning hayotida ham aynan shunday voqealari bo'lganki, yozuvchi ushbu voqeani asar muqaddimasisida o'quvchilarga havola etgan.

Borgan sari omadsizlik va kambag'allik botqog'iga botib ketayotgan Mandinio bir kechada umriga nihoya yasashga ahd qiladi va ko'cha kezib "lombard idorasining chang bosgan derazasidan" narxi 29 dollar bo'lgan kichik bir to'pponchani ko'rib qoladi. Va cho'ntagidan oxirgi chaqalarini olib qarasaki, 30 dollar! Shu tobda, shu to'pponchani sotib olib, darhol joniga qasd qilishni hayolidan o'tkazadi. Tabiiyki, irodasi bunga yo'l qo'ymaydi. Alamlar girdobida yana atrofni kezishga tushadi. Izg'iy -izg'iy jamoat kutubxonasining yoniga kelib qoladi. Dastavval, tashqari sovuqligi uchungina kutubxonaga kirgan

Mandinio minglab kitoblar orasiga sho'ng'ib ketadi va so'nggi najotni kitoblardan izlay boshlaydi. U hayotda yo'lini topmoqchi bo'lganlar uchun zarur maslahatlar bera oladigan bir qancha adabiyotlarni olib o'qishga kirishadi. Bu esa uning hayotidagi tub burilishning ilk qadami bo'ladi. Shu tariqa u juda ko'p kutubxonalarda bo'ladi va o'zi uchun uni butkul o'zgartirgan, tom ma'noda qutqara olgan asarni kashf etadi. Bu Klement Stounning "Ishonch—muvaffaqiyat garovi" nomli asari edi. Stounning omad falsafasini o'zida tatbiq etgan Mandinio butkul yangi hayot boshlaydi va shu zaylda yangi zafarlar olamiga kirib boradi. Birgina asar orqali inson ongiga kirib, uning ruhiyatiga ta'sir qila olgan motiv uning hayotini o'zgartirib yuborishga qodir ekanini muallifning hayoti misolida ham ko'rdik. O'zi kabi ba'zida omadsizlikka uchrab, qaltis vaziyatlarda noto'g'ri qaror qabul qiluvchi fe'l-atvor egalariga oz bo'lsada yo'l ko'rsatish, ularni ruhlantirish, eng asosiysi, hech qachon ortga chekinmaslikka undovchi asar yozishga ahd qilgan Og Mandinioning ushbu asari millionlab o'quvchilarning hayotini izga solishga o'z hissasini qo'shganiga sira ham shubha yo'q!

Tadqiqotlar natijasida shaxsning rivojlanishi aynan o'tmishni yodga olmasdan, yoki eski xatolarni takrorlashdan qo'rqlmay, oldinga dadil qadam tashlagan paytagina ro'y berishi aniqlangan. Insonni oldinga harakat qilishi va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishida mana shu kabi ruhiy ozuqa va motivatsiyaga boy asarlar inson psixologiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo hozirgi kunda urfga kirgan, tazyiq va bosimga asoslangan ba'zi yozmalar bundan mustasnodir.

"Dunyoning eng buyuk savdogari" asarining yana bir o'ziga xos jihatni esa ushbu asar mutolaasi davomida siz o'zingiz bilan "tillashasiz", ya'ni asarning ko'p qismi "men" tilidan yozilgan va bu uslub o'z muvaffaqiyatiga erisha olgan. Asar bu har bir kitobxon uchun - qo'llanma! Unda YASHASH SIRI aytildi. Asarda voqealar rivoji asosiy planda qo'yilmaydi. Markaziy obraz orqali yozuvchining insoniyatga yetkazmoqchi bo'lgan tavsiyalari , yo'l -yo'riqlari izohlab , tushuntirib beriladi. Yozuvchi asar syujetini bitta ipga teradi. Ya'ni obrazlarning taqdidi bir -biriga bog'langan holda davom ettiriladi. Boy savdogar Patrosning hayot yo'li - Xafidning hayot yo'li - Pavelning hayot yo'li (Garchi Pavelning hayot yo'li Xafidning oldiga kelgunicha yaratilgani aytilsa-da , uning keyingi taqdidi kitobxonga ma'lum bo'ladi!) Har bir voqealikda yozuvchi keyingi voqealik uchun bittadan luqma tashlab ketadi. Buni asarni ikkinchi marotaba o'qigan odam ko'proq his qilib, tushunadi. Asardagi qahramonlarni birlashtirib turuvchi va hayot yo'llarining o'xshashligini belgilaydigan omil - "Dunyoning eng buyuk savdogari" maqomi va "Nomalar"dir!

Asarda yozuvchi har bir qahramonga alohida xarakter va ruhiyat yuklaydi.Insonni iymonini yuzaga chiqaradigan narsa bu - DINdir. Mana shu iymon ,ishonch, e'tiqod har bir qahramonga singdirilgan. Asarda Iso payg'ambarning hayot yo'li bilan bog'liq voqealik atrofida mana shu 3 shaxs (Patros, Xafid, Pavel) gavdalantiriladi. Ya'ni Iso payg'ambar tug'ilgan kechada Xafidning chaqaloqni o'ragan yopinchig'i (bu voqeadan keyin, Xafid Alloh tomonidan xoslar ichidan joy oladi) , Pavelning o'sha yopinchiqni oradan ancha yillardan keyin topib, Iso payg'ambar dinini targ'ib qilishi.(Yopinchiq esa Patrosga tegishli) Har uchchala shaxsning "dunyoning eng buyuk savdogari " bo'lishiga aynan shu voqealar sabab bo'ladi.Inson nimagaki erishmoqchi bo'lsa, unga kuchli ruhiyat, iroda va jasorat kerak bo'lishi ta'kidlanadi.

Asarning "mag'z'i bu - nomalar! Asarda insonni to'g'ri yashashga o'rgatadigan , iymonini butun, irodasini mustahkam , o'ziga bo'lgan ishonchni yanada orttiradigan narsa bu -nomalar qilib belgilangan ! Har bir nomada ko'rilgan, kuzatilgan hikmatlar, qarashlar berib boriladi. Garchi asarda savdo sohasida dunyoning eng buyuk savdogari bo'lish tavsiyalari yozilgan bo'lsa-da , bu asarni turli kasb vakillari, butun insoniyat o'zining olamini qayta yaratish uchun ham o'qishi kerak! Asardagi hikmatlar va dalilga ega bo'lgan fikrlar insonni qaytadan kashf qiladi: "Mingta donish manddan "omad nima?" deb so'rasang, ularning har biri ayricha javob qaytaradi. Ammo ulardan "omadsizlik nima?", deb so'rasang, hammasi bir xil javob beradi: "Omadsizlik — bu katta yo kichik bo'lishidan qat'iy nazar hayotiy maqsadlarga yeta olish qobiliyatiga ega bo'lmashlikdir".

Asardan kitobxon o'ziga nima oladi?! Eng avvalo , hayotga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Muhabbat, mag'lubiyat, qat'iyat, ishonch, g'alaba, mehnat, hissiyot, harakat, tajriba kabi tushunchalarni qaytadan kashf qiladi!Eng muhimi, yozuvchi aytganidek, "Men bugun yangi hayot boshlayman" deya o'ziga baralla aytaladi!Asarni o'z hayotini o'zgartirmoqchi bo'lgan , nimagadir erishmoqni niyat qilgan barcha kitobxonlarga o'qishni tavsiya qilaman!

Foydalanimgan adabiyotlar.

1. Og Mandinio “Dunyoning eng buyuk savdogari” – Toshkent. “DAVR PRESS” NMU. 2016
2. Izzat Sulton “Adabiyot Nazariyasi ”. “O’qituvchi” nashriyoti. 1986.
3. www. ziyonet. uz veb-sahifasi
4. www. moscsp.ru veb-sahifasi